PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI O'RNI

Mohlaroyim Mamaraimova
Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik diagnostikaning o'rni, uning ta'lim sifatini oshirishdagi ahamiyati va funksiyalari milliy qonunchilik asosida yoritilgan. Shuningdek, diagnostika orqali o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, o'quv jarayonini korreksiyalash va ta'lim sifatini monitoring qilish yo'llari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagog, diagnostika, vazifa, muammo, samaradorlik, ta'lim sifati, zamonaviy tizim, standart.

Аннотация: В статье рассматривается роль педагогической диагностики в современной системе образования, а также ее функции и значение для повышения качества образования с учетом положений национального законодательства. Кроме того, анализируются методы оценки уровня знаний обучающихся, корректировки образовательного процесса и мониторинга качества образования посредством диагностики.

Ключевые слова: образование, воспитание, педагог, диагностика, задача, проблема, эффективность, качество образования, современная система, стандарт.

Abstract: This article examines the role of pedagogical diagnostics within the modern education system, as well as its functions and significance in enhancing the quality of education, based on national legislation. It also analyzes methods for assessing students' knowledge levels, adjusting the educational process, and monitoring educational quality through diagnostics.

Keywords: education, upbringing, educator, diagnostics, task, problem, effectiveness, quality of education, modern system, standard.

Bugungi kunda ta'lim tizimining oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — har tomonlama rivojlangan, raqobatbardosh shaxsni tarbiyalash va ta'lim sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarishdir. Ta'lim sifatini boshqarish va uni yuqori bosqichga olib chiqish uchun esa o'quv jarayonining real holatini aniq bilish talab etiladi. Aynan shu nuqtada pedagogik diagnostika ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning rivojlanish jarayonini tahlil qiluvchi, yo'naltiruvchi, korreksiya qiluvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, pedagogik diagnostika o'qituvchining kasbiy faoliyatining ajralmas va muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonunining[1] 33-moddasida ta'lim jarayonining sifatini nazorat qilish va baholash mexanizmlari alohida belgilab qo'yilgan. Mazkur qonuniy asosga ko'ra, zamonaviy o'qituvchi zimmasiga nafaqat bilim berish, balki ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini tizimli ravishda tahlil qilib borish majburiyati ham yuklanadi. Shu nuqtai nazardan, diagnostika shunchaki o'quvchining bahosini qo'yish emas, balki qonunchilikda belgilangan ta'lim sifatini kafolatlovchi asosiy monitoring vositasidir.

Pedagogik diagnostika — o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlik samaradorligini, o'quvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini hamda uning shaxsiy rivojlanish dinamikasini o'rganuvchi tizimdir.

Pedagogik diagnostika ta'lim jarayonida bir nechta muhim vazifalarni (funksiyalarni) bajaradi:

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

1. Axborot berish (Pedagogik monitoring): O‘quv jarayonining har bir bosqichida o‘quvchilar nimalarni o'zlashtira olgani va qayerda kamchiliklar borligi haqida aniq ma’lumot to'playdi.
2. Korreksiyalash (Tuzatish): Diagnostika natijalariga tayanib, o‘qituvchi o‘zining dars o'tish metodikasiga, o‘quv rejasiga o'zgartirishlar kiritadi.
3. Rag'batlantirish va motivatsiya: O‘quvchi o'zining o‘sish darajasini ko'rib, o'qishga bo'lgan ishtiyoqi ortadi.
4. Prognozlash (Kelajakni loyihalash): O‘quvchining intellektual salohiyatidan kelib chiqib, uning kelajakda qanday natijalarga erisha olishini oldindan ko'ra bilish imkonini beradi.

Pedagogik tashxislash orqali pedagog faoliyatini aniqlashtirish, uni amaliy vazifalarni hal qilishga yo‘naltirish, pedagogning kasbiy kompetentligini takomi lashtirish, o‘quvchilarning bilim hamda tarbiyalanganlik darajasini, shuningdek, o‘quvchilar jamoasining tarbiyalovchi ta’sirini kuchaytirish mumkin.

L.V.Grebennikovaning qayd etishicha, o‘qituvchi faoliyatini tahlil qilish orqali tashxislash u tomonidan tashkil etilayotgan kasbiy mehnat bilan uning natijasi o‘rtasidagi farq (ta’lim oluvchilarning aqliy, madaniy rivojlanishi, zakovati, nazariyaning amaliyot bilan bog‘lay olish ko‘nikma, malakalariga egaliklari)ni ko‘rish, o‘qituvchi mehnatida zamonaviy hamda ana’aviy yondashuvlarni ongli ravishda o‘zaro uyg‘unlashganligini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Qaysi soha bo‘lishidan qat’i nazar tashxislash murakkab jarayon sanaladi. Binobarin, bu jarayonda barcha omi larni inobatga olish, qo‘lga kiritilgan ma’lumotlarni har tomonlama tahlil qilish, natijalarni xolis baholash talab etiladi. Bordi-yu, tashxis jarayonida bu talablardan biri inobatga olinmasa, u holda pedagogning faoliyati, qolaversa, unga bog‘liq ravishda o‘quv-tarbiya ishlarining samaradorligi ham baholanmaydi.

O‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni mustaqil ravishda tahlil qilib,baholab borish malakalariga ega bo‘lishlarini ta’minlashga erishish zarur.Pedagoglarning kasbiy kompetentlikka egalikni mustaqil tahlil va baholash ko‘nikmalariga egaliklari o‘z ustida ishlashlari, kamchiliklarni izchil bartaraf etish, yutuqlarni muntazam ravishda boyitib borishga odatlanishlariga yordam beradi. O‘qituvchi faoliyatida diagnostikaning o‘rni.

O‘qituvchi kasbining samaradorligi o‘quvchilar bilan olib boriladigan tahliliy ishlarga bevosita bog‘liq. Quyidagi jihatlar diagnostikaning ahamiyatini ko‘rsatadi:

1. Ta’lim jarayonining sifatini oshiradi.Diagnostika orqali o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlar aniqlanadi va shu asosda o‘qitish metodlari moslashtiriladi.
2. Individua lashtirish va diferensial yondashuvni ta’minlaydi.Har bir o‘quvchining o‘ziga xos rivojlanish sur’ati, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish imkonini beradi.
3. O‘qituvchining rejalashtirish faoliyatini asoslaydi.Dars mazmuni, metodikasi va vositalari diagnostik natijalarga ko‘ra shak lantiriladi.
4. Refleksiya va o‘z-o‘zini baholashga yordam beradi.O‘qituvchi o‘z faoliyatining samarasini tahlil qilib, kerakli o‘zgarishlar kiritadi.

Pedagogik diagnostikaning o‘qituvchi faoliyatidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

• O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash va baholash; • O‘quvchilarning psixologik holatini, rivojlanish darajasini aniqlash;
• Pedagogik jarayon samaradorligini tahlil qilish;
• O‘quv faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish;
• O‘quvchilar rivojlanishini nazorat qilish va individual yo‘nalishlarni belgilash kabilar.

Ta’lim sifati — bu faqatgina yuqori baholar yoki bitiruvchilarning ko'rsatkichlari emas. Bu o‘quvchining olgan bilimidan hayotda to'g'ri foydalana olish qobiliyatidir. O‘zbekiston Respublikasi

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi PF-5712-sonli Farmonida ham ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish hamda o‘quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini diagnostika qilish ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 997-sonli qarori[2] asosasi mamlakatimizda PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining joriy etilishi ham aynan pedagogik diagnostikaning yuqori bo'g'inidir. Bu me'yoriy-huquqiy hujjatlar va zamonaviy talablar asosida pedagogik diagnostika ta’lim sifatini quyidagi yo'llar bilan ta’minlaydi:

- Individual yondashuvni shakllantirish: Sinfdagi har bir o‘quvchining qabul qilish tezligi va intellektual darajasi turlicha. Diagnostika o‘qituvchiga har bir o‘quvchining "kuchli" va "zaif" tomonlarini ko'rsatib beradi. Natijada qoloq o‘quvchilar bilan alohida, iqtidorlilar bilan alohida ishlash tizimi yo'lga qo'yiladi.
- Bo'shliqlarni o'z vaqtida aniqlash: Agar o‘quvchi mavzuni tushunmay qolsa va bu zanjir davom etsa, keyingi mavzularni o'zlashtirish qiyinlashadi. Diagnostika orqali "bilimlar bo'shlig'i" (knowledge gaps) dastlabki bosqichdayoq aniqlanib, bartaraf etiladi.
- O‘qituvchi mahoratini baholash: Diagnostika faqat o‘quvchini emas, balki pedagog faoliyatini ham ko'rsatuvchi ko'zgudur. Agar sinfning katta qismi topshiriqni bajara olmasa, demak, o‘qituvchi metodikani o'zgartirishi kerak bo'ladi.

XIX asrning II yarmida maktabda ta'lim turlarining keng tarqalishi munosabati bilan baholash usu larini takomi lashtirish zarurati tug'ildi. Pedagogik diagnostikaning rivojlanishi psixodiagnostika usu larini yaratish bilan para lel ravishda amalga oshirildi va bu jarayonlar integra lashdi. Aksariyat psixologik testlar maktab ehtiyojlari uchun maxsus yaratilgan yoki pedagogik jarayonda foydalanish uchun tezda moslashtirildi.

K.Ingenkamp fikricha «Pedagogik diagnostika, birinchidan, individual ta'lim jarayonini optima lashtirishga mo'lja langan bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim natijalarini to'g'ri aniqlashni ta'minlash, uchinchidan, jamiyat manfaatlariga mos keladi. Shuningdek talabalarni bir o'quv guruhidan boshqasiga o'tkazishda, ularni turli kurslarga taqsimlashda va ta'lim ixtisosligini tanlashda xatolarni minima lashtirish uchun ishlab chiqilgan mezonlarga bo'ysunadi».

Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika vositalarini o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlay oladigan darajada takomi lashtirish talab qilinadi. Qolaversa, har bir o‘quvchining muammo va yutuqlariga tayangan holda uni rivojlantirish traektoriyasini oqilona belgilash maqsadga muvofiqdir. Bunda, eng muhimi, pedagogik diagnostika jarayoni bosqichlari to‘g‘ri belgilash va ularni izchil tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Demak, zamonaviy sharoitda har bir o‘qituvchi har o‘qituvchi pedagogik diagnostika asoslarini puxta bilishi, bu boradagi mavjud bilimlaridan ta’lim va tarbiya jarayonida samarali foydalana olishi zarur. Zero, shunda pedagogik jarayonning samaradorligini ta’minlash va o‘quvchilarni har tomonlama rivojlangan shaxs etib tarbiyalashga erishiladi.

Pedagogik diagnostika o‘qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi, ta’lim sifatini oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchining shaxsiy rivojlanish yo‘lini kuzatuvchi, baholovchi va kerakli o‘zgarishlarni joriy qiluvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu sababli pedagogik diagnostika o‘qituvchining har kunlik ish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim o‘rin tutadi.

Bugungi raqamli ta’lim muhitida diagnostika usullari ham transformatsiyaga uchradi. Hozirda quyidagi usullardan keng foydalanilmoqda:

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

- Kriterial baholash va testlar: O‘quvchining aniq bir ko'nikmani qay darajada egallaganini o'lchaydi.
- Portfolio (Yutuqlar papkasi): O‘quvchining ma’lum bir vaqt oralig'idagi barcha ishlarining to'plami bo'lib, uning ijodiy va mustaqil fikrlash darajasini ko'rsatadi.
- Suhbat va kuzatuv: O‘quvchining psixologik holati, darsga bo'lgan qiziqishi va ijtimoiy adaptatsiyasini aniqlashga yordam beradi.
- Raqamli platformalar: LMS (Learning Management Systems) va elektron kundaliklar (masalan, Kundalik.com) orqali o‘quvchining o'zlashtirish dinamikasini avtomatlashtirilgan grafiklar yordamida kuzatish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, pedagogik diagnostika ta’lim sifatini oshirishning eng samarali va fundamental mexanizmlaridan biridir. Diagnostikasiz ta’lim — ko'r-ko'rona harakat qilish kabidir. Ta’lim muassasalarida diagnostika ishlarini me'yoriy-huquqiy talablar asosida to'g'ri va tizimli tashkil etish, o‘qituvchilarning bu boradagi savodxonligini oshirish dars samaradorligini kafolatlaydi hamda har bir o‘quvchining shaxs sifatida muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni. — Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. — Toshkent, 2019-yil 29-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Uzluksiz ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarori. — Toshkent, 2018-yil 8-dekabr.
4. Abdulayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika. -Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010 - 256 b.
5. Abdulayeva Sh. A. O' quvchilami pedagogik tashxislashda qo' laniladigan metodlar//Xalq ta’limi, 2016 ,№3, 40-45 b.b. Jabborova O., Qarshiboyeva X. *Pedagogik diagnostika.* O‘quv qo‘llanma. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, 2023. — 180 b.
6. Karimov T. *Pedagogik diagnostika asoslari.* — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2020. — 210 b.
7. Abdullayeva N. *Ta’limda nazorat va baholashning innovatsion metodlari.* — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019. — 165 b.
8. Berkov V. I. *Pedagogicheskie diagnosticheskie texnologii.* — Moskva: Vlados, 2015. — 198 s.
9. Scheerens J. *Measuring Educational Quality by Means of Indicators.* — University of Twente, Springer, 2011. — 180 p. *(Ta’lim sifatini monitoring va diagnostika qilish tizimlari tahlil qilingan Yevropa tadqiqoti)*.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.